

Ajibe

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
1-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



TOSHKENT – 2021

Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova

Alifbe 1-sinf [Matn] : darslik / R. Safarova, M. Inoyatova. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 80 b.

Smart darslik g'oyasi muallifi:

Pedagogika fanlari nomzodi Dadajon Sayfurov

Mas'ul muharrir:

Professor Mirhabib G'ulomov

Taqrizchilar:

- | | |
|--------------------|--|
| Sh. A. Abdullayeva | – Toshkent davlat pedagogika universitetining boshlang'ich ta'lif fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor; |
| F. B. Karimova | – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 281-umumta'lif muktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi; |
| N. A. Paxritdinova | – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lif muktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi. |

Shartli belgilar:

– rasmga qarab so'zlang.



– so'z andozasi bilan ishlang.



– bo'g'inga ajrating.




– harfni toping.



– savol-topshiriqni o'qituvchingiz o'qib beradi.



– matnni o'qituvchingiz o'qib beradi.



– ajratilgan so'zlarni o'qing.



– matnni o'qing.



– savol-topshiriqni o'qing va javob bering.



– krossvordni yeching.



– dars yakuni.

SCAN ME
TO GET TO OUR RESOURCES
<http://dr.rtm.uz>

**DIQQAT!**

Darslikni to'ldiruvchi raqamli tashkil etuvchilarga o'tish uchun **QR kod** yoki veb saytdan foydalaning.

dr.rtm.uz




Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.








O'quv qurollari nomini ayting:




1. To'g'ri o'tirish qoidasini bilasizmi?
2. O'quv qurollaridan qanday foydalanasiz?








Sabzavotlar nomini ayting:




□ □ - □ □ □



□ □ □ - □ □



□ □ □ - □ □ □



□ □ - □ □ □







1. Sabzavotlarga misollar keltiring.
2. Poliz ekinlariga nimalar kiradi?





Mevalar nomini ayting:



□ - □ □ □



1. Mevalarga misollar keltiring.
2. Mevalar nimasi bilan foydali?

1 1 1 1 | 2 2 2 2 | □ □







- -



-





- -




1. Kutubxona haqida gapirib bering.
2. "Kitobxon" so'zini qanday tushunasiz?





Oo



1. Ot, toychoq haqida nimalarni bilasiz?
2. Qaysi hayvonlarni uy hayvonlari deb ataymiz?

o/o o/o o/o o/o o/o



Nn

Nn



no || on

non



Nn




blue - white - blue - white







Non



1. Bug'doy qayerda o'sadi?
2. Nonni kim yopadi?

J J S S S N N N Non





Aa

Aa




na | an

a-na | o-na | non



Ana non.

– O-na, a-na




na, on





Qaysi bo'g'inlardan so'z yasash mumkin?



A a a A A Ana



ii

Ll i




na | ni || no | on

in | ni-na



ii



– Ona, ana ni-na.

– Ana




n **red** na, no **blue**

i / i . . . i / i in, nind





Bo'g'inlardan so'z tuzing va o'qing:



n, ni a

P / l / a / a / d / d / ln ana.



Mm

Mm




ma || mi || mo



ma
ma-na

nom
ni-ma

O-mi-na
Na-i-ma



Mm



– O-mon, ma-na



– O-na, a-na



– Na-im, a-na



m na, nim ?

1 / 1 2 / m m min, nom




O-mon
I-mo-na

Na-im
Na-i-ma



Kasb nomlarini ayting:



- O-mi-na, ma-na
- O-na, nima?




1. Qanday transport turlarini bilasiz?
2. Yo'lovchi tashuvchi transportlarga nimalar kiradi?

J l l / M M Mannon



Tt



ta || ti || to

tom
ta-om

ot
o-ta



Tt



Mana ot.

Ana



aom, ana.


— / — l l t t tom, mitti



it
mit-ti

ma-to
man-ti

ta-na
tan-ta-na



Ota, mana it. It – .




1. It haqida nimalarni bilasiz?
2. Xizmat itlari haqida nimalarni bilasiz?

J J T T T Tom ana.



Ll



la | li | lo | il | al | ol

al-la
lo-la

ilm
til

o-lim
ol-ti



□ □ - □ □ □



Ll



□ □ - □ □ - □ □



□ □ □ - □ □ - □ □



□ □ - □ □



Mana .
Ana oltin.



to □, o □ tin.

l l lola, alla, olti



o-i-la
mil-lat

A-li
O-lim

Lo-la
No-i-la



Mana ota. Ota .





Mana ona. Ona .



Mana Lola. Lola .



Mana Ali. Ali .



ola, olti, tola.

L L | Lola, olmani ol.



Bb

B B




ba || bi || bo || ab || ib || ob

bi-no
bo-la

bil
bi-lim

bol-ta
bo-bo



Bb



– Bobo, ana bino.

– Bi-no-ni



la , ta i .

b / b / bola, / bobo, / bilim /



ta-bi-at
ta-bo-bat

Bi-lol
I-no-bat

To-lib
Na-bi




– Tolib, ana Bilol. Bilol – bilimli bola.
Tolib, bilim ol.



1. Bobo nabirasiga nima maslahat berdi?
2. Ayting-chi, bolalar nega bilim olishi kerak?


Bilimli bola Bilolmi?
Bilol bilimli bolami?



J B B B Bilol - bilimli bola.



Kk








ka || ki || ko || ak || ik || ok

kon
ka-lit

ik-ki
ka-mon

ki-tob
mak-tab



- Ona, mana , ana kitob.
- Komila, bu – kitobi.



no, aa, atta.


l z k k katta, kitob



Ko-mil
Ko-mi-la

Ka-mol
Ka-mo-la


Ak-mal
Ma-li-ka



Kitobman

Men ki-tob-man,
ki-tob-man,
Nurga to'la
oftobman.

Agar meni
yirtsalar,
Biling, shunda
betobman.



Abdulla Turdiyev



1. Kitob qachon betob bo'lar ekan?
2. Nima uchun ko'p kitob o'qish kerak?

Ji Ji Ji Komil, kitobni ol.



Rr

Rr



ra || ri || ro || ar || ir || or

rom
bor

a-ri
ar-ra

bar-ra
ka-ram

ro-bot
ran-da



Onam nima deydi?



1. Onangiz sizga nimalar deydi?
2. Nega onalarni hurmat qilish kerak?



Im-ron
Kom-ron

Ak-rom
Ik-rom

Ka-rim
Ka-ro-mat



Sayrga chiqamiz

Osmonlarni quchamiz,
Samolyotda uchamiz.
Bulut go'yo oppoq qor,
Tr-tr! Tirillar motor.
Qiynalmay, botmay terga,
Qo'nib oldik biz yerga.




Kavsar Turdiyeva



She'rdan **r** harfi qatnashgan so'zlarni toping.



B A R N O R A




nabira, orol, tomir.

J P i R R / Rom - katta.



O' O'









o'k || o'r || ko' || ro' || to'

**o'n
o'-rim**

**o'-tin
o'-rik**

**ko'l
ko'k**

**to'r
bo'-ri**



b ri, o' in, to' i.

o / - o o orik, borı, ormon





ko'k-lam
ko'-mak

O'k-tam
O't-kir



Yuqoridagi qaysi sonlarni yoza olasiz?



ko'rik, ko'rakam, ko'klam.

~ Ø Ø Ø Ø Øtkir, Øktam



Dd

D d



da || di || do' || ad || id || od || o'd

don || do-ri || do'-kon || da-rak
do'l || da-la || da-ro-mad || da-nak



Dalada

Mana dala. Dalada don mo'l. Madina dalada
Odil a-ma-ki-ni ko'rди.



1. Non nimadan tayyorlanadi?
2. Odil amaki kombaynda nima o'radi?



Dil-bar
Di-no-ra



Da-min
Di-lo-rom

Dil-do-ra
A-do-lat



Odobli bo'l

Damin bilan Odil – odobli bolalar. Odobli bolalar tartibli bo'ladilar. Odobli, tartibli bo'l.



adir, dala, do'lana.

D D Dilbar dalada.






Uu

Uu



uk | bu || du | ku | mu | nu || ru | tu

un	u-ka	kun	tul-ki
uk-ki	ik-ki	tun	tur-na



Quyosh qayerda joylashgan?



Bulut ustida.



Bulut orqasida.



Bulut




1. Bulutni nimalarga o'xshatish mumkin?
2. Ayting-chi, quyoshning vazifasi nimalardan iborat?



**U-mid
U-mar**

**U-mi-da
Nu-ri-l-la**

**Mu-ni-ra
Mu-bo-rak**



- U kim?
- U Umar.
- Bu kim?
- Bu – Umid.



Umar bilan Umid – aka-uka.



1. Mehnat so'zini qanday tushunasiz?
2. Bolalar nima qilishyapti?

z/l u/u Umar, Umida




Yy

Y Y



ya yi yo yu yo' ay iy o'y
yurt yu-rak yo'l yo'-lak may-da may-don bay-ram tar-bi-ya



Yo'lida

Mana katta yo'l. Unda lar bor.



1. Yo'l qoidalarini bilasizmi?
2. Yo'l qoidalariga amal qilasizmi?



o' na, t ya, dar o.

ü / j y y yol, yuk, yurt



Ya-min
Yor-mat

Yay-ra
Oy-din

Lay-lo
Di-yo-ra



Yayra

Yayra – quvnoq qiz. **U kitob** o'qishni, raqs tushishni yaxshi **ko'-ra-di**. Qo'shiq aytishga, sportga qiziqadi. **Bo-la-lar**, ayting-chi, siz nimaga qiziqasiz?

"G'uncha" jurnali



1. Y va y harflari qatnashgan so'zlarni toping.
2. Bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanasisiz?
3. Vaqtingizni to'g'ri taqsimlay olasizmi?

z / t y y Yamin, Yayra



Ee

Ee





be || ke || me || re || te || ye || em || et || er || en

el
ek


e-tak
e-kin

er-ta
er-tak

Oy-bek
O-ta-bek



Ee



Ari



Meni deydilar ari,
Bilar bolalar bari.
Zuv-zuv uchib yuraman,
Tekkanga nish uraman.



Muxtor Xudoyqulov





1. Arilar qanday joylarda yashaydi?
2. Arilar nega bolani quvlayapti?

e / e el, elak, etak, ekin



El-bek
El-yor

Er-kin
El-dor



“Eee” dema

“Eee, dema, erkatoy,
Erinchoqlik qilma, hoy”,
Desam, ushlab boshini
Xo‘mrayadi **Erkaboy**.

Ochil Tohir



1. Erinchoq bola qanday bo‘ladi?
2. Nima uchun erinchoqlik yomon odat hisoblanadi?





Bir dona bedana,
Bedana bir dona.



e / c / E / E Elbek, Erkin



Gg






ge || eg || ga || gi || ag || go || ig || gu || go'

gerb
gul

gul-don
gi-lam

gu-gurt
ger-ba-riy



Bu nima?

Bu – gul. 

Bu – guldon. 

Guldonda gullar bor.



la □an, bur □ut, tu □ma.

o / f / g / g / gilam, / guldon





Gu-li
Gul-yo-ra

Gul-lo-la
Gul-mi-ra

Gul-no-ra
Yod-gor



Gulnora, mana guldor gilamlar.




Qaysi uy jihozlarini hunarmandlar yasaydi?

0 / j g / g *guli, Gulnora*



Ng ng


Ng ng



tong
rang
teng

keng
yeng
ta-rang

si-ngil
ko'-ngil
bod-ring




Bayrog'imiz

Moviy, oq-u yashil **rang**
O'zbekiston bayrog'i.

Ko'zni **oladi**, qarang,
Hilpirab **turgan** chog'i.

Moviy **rang** – **mangu osmon**,
Obihayot ramzidir.
Ezgulikka posbon
Chin e'tiqod ramzidir.



Muxtor Xudoyqulov



1. O'zbekiston bayrog'ida qanday ranglar aks etgan?
2. Sizningcha, oq va yashil ranglar nimani bildiradi?





Bekatda

Erkin bekatda o'tirar edi. U Karim otani ko'rib,
o'rnidan turdi.

- Keling, Karim ota, o'tiring, – dedi u.
- Omon bo'l, bolam, – dedi Karim ota.


Oltin olma, duo ol.

Boradi, boradi – tangaday yerni oladi.

ng ng ng Tong otdi.



Ss




sa || se || si || so || su || so' || as || es || is || os || us

son
sel



so-at
sa-lom

si-gir
so-mon

so-ya
so-ya-bon



Ss



1. Sut mahsulotlariga nimalar kiradi?
2. Sutdan qanday taom tayyorlash mumkin?

3 3 sel, soat, asal, atlas



Sa-nam
Sa-mad

Su-ray-yo
Sa-no-bar

Sar-do-ba
Sir-dar-yo

Bo's-ton
Gu-lis-ton



So'z sehri

Qanday yaxshi so'z – **kalom**,


Odob boshi – “**As-sa-lom**

Xush yoqadi hamma vaqt:

“Rahmat”, “Xo‘p-xo‘p”, “Marhamat”.

So'nggi so'z ham **a-lo-mat**:

“Xayr, **bo'ling sa-lo-mat**”.



Dilshod Rajab



1. She'rdagi sehrli so'zlarni toping.
2. Bu so'zlardan qachon foydalanamiz?

Su-ya-ma-sang, turolmas,
Sen min-ma-sang, yurolmas.



S/S Saodat salom berdi.



Hh



ha || he || hi || ho || hu || ho' || ah || eh || oh || uh

hu-mo
hu-nar

ha-lol
has-sa

hi-ko-ya
han-da-lak

mehr
mo-hir



□ □ - □ □




Hh



□ □ □ - □ □ □



□ - □ □ □



□ □ - □ □ □



Hunar, hunardan unar.

Harakat, harakatda barakat.

Har kim ekkanini o'rар.



hurmat, mahkam, himmat.

f / r h / h humo, mehnat



**Ha-san
Hik-mat**

**To-hir
Mo-hi-ra**

**Mah-mud
Mah-mu-da**



Hunarlar



Mohir hu-nar-mand kulollik hunari bilan obro' orttirdi. Halol mehnati uni katta boylik sohibiga ay-lan-tir-di.

Mehnat, mehnatning tagi – rohat.



1. Rasmlarda kimlar tasvirlangan?
2. Siz kim bo'lishni istaysiz? Nega?

J / l J l J l Hilola, Hikmat



Sh sh

Sh Sh



sha | she | shi | sho | shu | ash | esh | ush

shoh
shod

osh
bosh

shim
shi-mol

ku-rash
ku-mush



Sh sh



Mashhur o'yin

 – ikki kishilik o'yin. U mash-hur o'yin turi hisob-la-na-di. O'yinga bir yarim – ikki soat beriladi. Dunyo bo'ylab mil-li-on-lab kishilar bu o'yinni o'ynaydilar.



shisha, shamol, shakar.

sh sh sh sher, shakar



**Sho-kir
Shuh-rat**

**Sho-i-ra
Sho-di-ya**

**Sham-sid-din
Shuk-rul-lo**



Kemiroy

Bir Kemiroy ismli kalamush bo'lgan ekan. Bir kuni u don to'la omborga kiribdi. Shoshib donlarni yeb, shishib ketibdi. Eh, keyin... kirgan teshigidan o'ta olmabdi. Shu sababli Mosh mushuk Kemiroyni osongina tutib olibdi.

"Oqshom ertaklari" kitobidan



1. Kemiroy nega omborga kiribdi?
2. Ochko'zlikning oqibati qanday bo'ladi?

S / h Sh / Sh Shoira, Shuhrat



Pp

Pp



pa || pe || pi || po || pu || ap || ep || up

pul
pat

pil-la
pi-yo-la

poy-ga
pos-bon

par-ta
par-da



Pp



Kim ayta oladi?

Po'lat Malikaga tort, do'ppi olib berdi. Kim ayta oladi? U bularni kimdan, qayerdan sotib olgan?



p **u**lla, pi **u**ola, po**u**ga.



ko'p
ko'p-rik

kop-tok
kap-tar

Po'lat
Man-nop

Par-kent
Pis-kent



Yurt posbonlari

Yurt himoyasi yo'lida posbonlar doimo hushyordir. Posbonlar ona diyor sar-had-la-ri-ni asraydilar.

Ona yurting omon bo'lsa,
Rang-u ro'ying somon bo'lmas.



1. Kimlarni posbon deb atash mumkin?
2. Yurtni kimlar himoya qiladi?

Q/J T P P Polat, Parkent



Qq

Qq



qa || qe || qi || qo || qu || aq || eq || uq


qish
qush || qal-poq
qo'l-qop || qu-yosh
qur-ba-qa || qa-lam
qay-noq




□□□-□□



□□□-□□-□□



□□-□□□



□□-□□

Solishtirib ko'ring!

Qurbaqaning terisi botqoq rang bo'rtmalar bilan qoplangan bo'ladi. Baqaning terisi esa silliq bo'ladi. Qurbaqalar baqalardan kattaroq bo'ladi. Odatda ko'l bo'ylarida baqalarning qurillashi eshitiladi.

"Qiziqarli ilm-fan" kitobidan



1. Qurbaqa bilan baqani solishtiring.
2. Ko'l bo'ylarida nimalar qurillaydi?




O-qi-la
A-qi-da

Qo-bil
Qo-dir


Qo-sim
Qud-rat

Qo‘-qon
Qar-shi



Baliq

Men baliqman, baliqman,
Mittigina qayiqman.
To‘nim tilla tangali,
Shuning uchun sariqman.



Muhayyo Egamberdi qizi



1. Baliq bilan qayiqni solishtiring.
2. Baliq nimalar yeydi?

Boshi taroq, dumi o‘roq.



Men yuraman, u qoladi.



O . Q / Q Qobil, / Qodir



Ch ch

Chch



cha || che || chi || cho || chu || cho' || ach || ech

choy
chol

chi-roq
cho'-mich

cha-qa-loq
chu-mo-li

che-lak
chaq-moq



□□-□□□□



Ch ch



□□-□□□□□□



□□-□□□-□□



□□□-□□□



Tekinxo'r

Chumolivoy
Topib ushoq,
Terga botib
Tortdi, biroq...

Chumchuq kelib
Sekingina,
Yutdi-qo'ydi
Tekingina.

Anvar Obidjon



chayon, childirma, pichoq.

c / h ch ch ch choy, chana



**Cha-man
Cha-ros**

**To'y-chi
Bar-chin**

**Chir-chiq
Chim-yon**



Charos chaqqon

Charos dam olish kuni erta turdi. Nonushtadan so'ng uyni tartibga keltirdi. Onasi Charosni erkaladi:

– Charosim – chaqqonim.



Onasi nima uchun Charosni “chaqqonim” deb atadi?

Ichi bo'yoq,
Sirti tayoq.





Osti tosh, usti tosh,
O'rtasida chandir bosh.



Ch Ch Ch Charos, Chimyon



Jj






ja || je || ji || jo || ju || jo' || aj || ej

joy
jar || jo'-ja
ja-la || jaj-ji
ja-sur || ja-hon
jay-ron




Jj



Jo'jalarim

Chiyo-chiyo,
Jo'ja qochdi.
Singlim Dono
Tariq sochdi.



Biri sariq,
Birisi oq.
Barcha jo'ja
Dum-dumaloq.

Botir Jonuzoq



Jo'ja haqida qanday qo'shiqlar bor?



Ja-lol
Ja-mol

Ja-mi-la
Ja-hon-gir



Ruchkangni berib tur

Bir kuni Jamol ruchkasini esidan chiqarib qo'ydi.
Jasurda esa 2 ta ruchka bor edi. Jamol undan:

- Bitta ruchkangni beribtur, o'rtoq, – deb so'ragan edi, Jasur:
- Nega ruchkangni esdan chiqarding? Bermayman, – dedi.

Jamol boshqa so'ramadi. Shu kuni u darsda hech narsa yozolmadi.

Hakim Nazir



1. Jasur to'g'ri ish qildimi?
2. Haqiqiy o'rtoq qanday bo'ladi?

J / J Jamol, Jasur - dost.



G' g'



g'a	g'e	g'i	g'o	g'u	g'o'	ag'	ig'
g'or	tog'		g'al-tak		g'o-lib		
g'al-la	bog'		g'ij-jak		g'a-la-ba		



Dangasa bilan g'ayratli

Dangasa bola: “Bugun o‘ynayman,
ertaga o‘qirman”, – deydi.

G‘ayratli bola: “Bugun o‘qiyman,
ertaga o‘ynarman”, – deydi.

Shokirjon Rahimiy

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.



G'a-ni
G'u-lom

G'i-yos
G'ay-rat

G'ay-bul-la
Mar-g'u-ba



Qor yog'di –
Don yog'di.

Qish gashti

Qor ustidan chanalar
Uchib borar o'q kabi.
Yayrab, o'ynab bolalar
Isib ketar cho'g' kabi.

Qishda qorbo'ron o'ynab,
O'ynashib qor otaman.
Qordan qorbobo yasab,
Qish gashtini totaman!..

Abdulla Po'lat




1. Qishning gashti nimada?
2. Qish o'yinlari nomini aytинг.

o t j g ġ Gayrat, Gulom



Zz



za || ze || zi || zo || zu || zo' || az || iz

zar	ziy-rak	o'z-bek	zeb-ra
muz	zag'-cha	go'-zal	zi-na



O'z tilim

Qonga kirgan sut bilan
O'zbek tilim, o'z tilim.
Ardoqlayman yurt bilan,
O'zbek tilim, o'z tilim.

Burro-burro so'zlayman,
Kelajakni ko'zlayman.
Istiqlolim, iqbolim
O'zbek tilim, o'z tilim.



**Assalomu
alaykum!**



Safo Ochil



1. Nima uchun o'zbek tilini ardoqlaymiz?
2. "Assalomu alaykum" so'zi nimani anglatadi?

- / z / z / z zağcha, / usum /



**Ze-bo
A-ziz**

**Zuh-ra
Zi-yo-da**

**Zo-kir
Zo-hid**



Zumrad bilan Qimmat

Bir zamonda katta soy bo'yida kichkina bir uy bo'lgan ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o'gay ona, uning Qimmat degan arzanda qizi yashar ekan. Kampirning Zumrad-ni ko'rarga ko'zi yo'q ekan...

"Ertaklar olami" kitobidan




1. "Zumrad bilan Qimmat" ertagini gapirib bering.
2. Zumrad bilan Qimmatni solishtiring.

~ЛЛЛ Зокир чанада учди.



Vv



va || ve || vi || vo || vu || vo' || av || iv

vo-ha
vo-diy

va-tan
va-gon

to-vus
to-vuq

vi-lo-yat
vo-li-da




Vatanim

Vatan, mening onamsan,
Issiq quchog'ing.

Olamda yagonamsan,
Aziz tuprog'ing.

Kelajaging buyukdir,
Yashna doimo.

Vatanim, seni bugun
Tanidi dunyo.



Abbosxo'ja Akromiy

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.



1. Vatan nega onaga qiyoslanadi?
2. O'zbekiston haqida nimalarni bilasiz?



**Vo-hid
Va-hob**

**Gav-har
Mav-ju-da**

**Na-vo-iy
Vob-kent**



Yangi ekilgan nihollar suhbati



– Joylashib oldinglarmi?
– to'satdan gap boshladi novcha nihol.
– Ekishayotganda mening bitta novdamni sindirib qo'yishdi, – deya zorlandi niholcha.
– Hechqisi yo'q, – dalda berdi novcha nihol,
– endi gurkirab o'sa boshlaymiz.
O'tgan-ketganlar soyamizda o'tirib dam olishadi. Bizga hali rahmat ham aytishadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev



1. Niholcha nega zorlandi?
2. Nihollarni qanday parvarish qilish kerak?

V V Vosit varrak uchirdi.



Xx

Xx




xa || xe || xi || xo || xu || xo' || ax || ix

xat
xa-bar

xo-na
xo-la

pax-ta
tax-ta

xa-ri-ta
xa-zin-a



Xx



Olmaxon

Meni derlar ol-ma-xon,
Taniydi butun jahon.
Yashash joyim o'rmonda,
Juda yon-g'oq-xo'r-man-da.

Muxtor Xudoyqulov




- Olmaxon qayerda yashaydi?
- Olmaxon nima yeydi?



Xush-nud
Xur-shid

Xo-li-da
Xa-di-cha

Xo-razm
Jiz-zax



Yaxshi bola

Yaxshi bola o'qishni va mehnatni sevadi.
Ozoda va orasta yuradi. Salomni kanda qilmaydi.
Vaqtni qadrlaydi.

Hammaga yaxshilikni xohlaydi. Yaxshilar
suhbatiga intiladi.

Abdulla Avloniy




1. Qanday bolani yaxshi bola deymiz?
2. Siz qanday o'quvchisiz?

J C X X Xoliq, Xurshida



Ff



fa || fe || fi || fo || fu || fo' || af || if

fil
fan


fasl
fa-zo

of-tob
pu-fak

far-zand
fa-ro-von



Ff



Fil

Fil deganlari shumi?

O'xshash xartumi, dumi.

Quloqlari shalpaygan,

Peshonasi yalpaygan.

Jahongir Bo'riyev



1. Filni tasvirlab bering. Sizga uning nimasi yoqadi?
2. Haqiqiy filni ko'rganmisiz? Shu haqida so'zlab bering.



**Far-hod
Fur-qat**

**Sa-far
O-rif**

**Fe-ru-za
Fa-zi-lat**

**Fo-rish
Far-g'o-na**



Flamingo nega pushti rang?

Fla-min-go tu-g'il-ga-ni-da kulrang bo'ladi. U odatda pushti rangli mayda qis-qich-ba-qa-larni yeydi. Shuning uchun uning rangi sekin-asta chiroyli pushti tusga kiradi.

"Qiziqarli ilm-fan" kitobidan



1. Flamingoning boshqa qushlardan farqi nimada?
2. Flamingo nima bilan oziqlanadi?

J F Farhod, Ferusa



, – tutuq belgisi

a'-lo
e'-lon

ta'-lim
mash'-al

jur'-at
sur'-at

A'-zam
Tal'-at



Sur'at

Sur'at jur'atli bola,
A'llo o'qir mакtabda.
So'zlari ham ma'noli,
Adashmaydi hech gapda.

Bilaman, siz bilimda
Sur'atdan ham o'zasiz.
Tutuq belgisi bo'lган
So'zlarni tez yozasiz!

Maftuna Aliyeva



1. Tutuq belgisi so'zda qanday vazifani bajaradi?
2. Tutuq belgili so'zlarni ajratib ko'rsating.





A'lochilar

Ra'noning Tal'at degan akasi bor. U oltinchi sinfda o'qiydi. Tal'at – aqlli, odobli bola. Barcha fanlardan a'lo baho oladi. Singlisi Ra'no ham a'lochi, odobli qiz.

Bola odobi bilan aziz.



1. "A'lochi" so'zini qanday tushunasiz?
2. A'lochi bo'lish uchun nima qilish kerak?



ALIFBO

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
(a)	(be)	(de)	(e)	(ef)	(ge)
Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	
(he)	(i)	(je)	(ke)	(el)	
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	
Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	
(em)	(en)	(o)	(pe)	(qe)	
Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	
Rr	Ss	Tt	Uu	Vv	
(er)	(es)	(te)	(u)	(ve)	
Rr	Ss	Tt	Uu	Vv	
Xx	Yy	Zz	O'o'	G'g'	
(xe)	(ye)	(ze)	(o')	(g'a)	
Xx	Yy	Zz	Oo	Gg	
Sh sh	Ch ch	Ng ng			,
(she)	(che)	(nge)			(tutuq belgisi)
Shsh	Chch	Ngng			,




Alifboni o'rgandim

Mana, endi alifbo dan
Chiqib qoldi savodim.
Bag'ishlayman senga, Vatan,
Bor bilimim, sabotim.

Diyorim – hur O'zbekiston
Eng buyuk yurt bo'lajak.
Kutar meni baxtli davron –
Go'zal, porloq kelajak.

Usmon Qo'chqor



1. Alifbo sizga nimalarni o'rgatdi?
2. She'rni ifodali o'qing?





Archa

Archa-archa, jon archa,
Yaproqlaring ninacha.
Atrofingda aylanib,
Qo'shiq aytadi barcha.

Salom senga, ko'k archa,
Qishin-yozin yashnaysan.
Yaproqlaring ninacha,
Yasangansan, go'zalsan.


Atrofingda aylanib,
Qo'shiq aytib quvnaymiz.
Har birimiz qo'l berib,
Yangi yilni qutlaymiz.

Zafar Diyor



1. Yangi yil bayramiga qanday tayyorgarlik ko'rdingiz?
2. Archa haqida qo'shiq aytib bering.






Rasmga qarab Yangi yil bayrami haqida so'zlab bering.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN



Xudoyberdi To'xtaboyev

Nega kitob o'qish kerak?



Bir qizcha kitobimga esdalik yozib berishimni so'radi. U bergen kitobning yozuvi o'chgan, varag'i yirtilgan edi. Kitobni 20 yil davomida juda ko'p odam o'qigan ekan. Bundan xursand bo'ldim. Chunki kitob insonni yaxshilikka yetaklaydi.

"Jippi akademik" jurnalidan

1. Bolalar yozuvchisi nimadan xursand bo'ldi?
2. "Sehrli qalpoqcha" filmidagi Hoshimjonni taniysizmi?





Dono kompyuter

Bir aqlli kompyuter bo'lgan ekan. Bolalar unda g'alati o'yinlar o'ynasharkan. U bir kuni: "Men bema'ni o'yinlar uchun yaratilmaganman", – deb o'chib qolibdi. Shundan so'ng uni omborxonaga kiritib qo'yishib, unutib yuborishibdi.

Bir kuni kompyuter ustasining o'g'li omborxonaga tushib, uni ko'rib qolibdi. Bolaga uy vazifasini bajarish uchun aqlli do'st kerak ekan. Dono kompyuter bolakayga yordam bera boshlabdi.

"Bolalar uchun hikoyalar" kitobidan

1. Kompyuterdan foydalanishni bilasizmi?
2. Kompyuterda qanday ishlarni bajarish mumkin?





Do'stlik

Do'stlik – po'lat,

Do'stlik – olov.

Do'stlik bilan

Yanchilar yov.

Do'stlik – quyosh,

Do'stlik bu – nur.

Do'sti ko'plar

Qilar huzur.

Yo'ldosh Sultonov

Qush qanoti bilan,
Odam do'sti bilan.

Do'stsiz boshim –
Tuzsiz oshim.



Do'stlaringiz haqida gapirib bering.



Ajoyib qizcha

Kattalarga ustozlik qiladigan qizcha borligini bilasizmi? Uning ismi Adora. Adora birinchi kitobini 7 yoshida yozgan. 8 yoshida esa “Raqqos barmoqlar” nomli kitobini yozgan.

Adora o‘zdarsida kattalarga: “...Bolalar katta bo‘lishadi. O‘zlari mustaqil yashashadi. Ularni bunga hozirdan o‘rgatib boring”, – deya eslatib turadi.

“Jajji akademik” jurnalidan




Siz ham ertak, hikoya yoki she’r yozib ko‘rganmisiz?



Qarag'ay

Bo'yin cho'zib qarag'ay,
Yon-atrofga qaragay.
Der u: "Barcha daraxtdan
Baland akang qarag'ay".



O'rik


Qantak o'rik otim bor.
Xo'p mazali totim bor.
Mag'izimga berkitgan
Qandim bor, novvotim bor.





Uzum

Donalarim – marjoncha,
Bir boshim naq bir jomcha.
Quritsangiz, mayizman,
Dasturxonga fayzman.
Kuzda yeb-yeb to'yishar,
Qishga osib qo'yishar.
Boqar shod yosh-qarilar,
Maqtar hatto arilar.



Anvar Obidjon




Sabzi

Yupqagina po'stim bor,
Dalada ko'p do'stim bor.
Maqolda ham yoziqman,
O'sha "oltin qoziqman".
Yotsam yerga qapishib,
Dumginamdan tortishib,
Tashladilar o'raga...
Salom palov to'raga!

Makkajo'xori


Men hammadan yuqori,
Ismim Makkajo'xori.
Dumbulgina go'dakcha,
Uxlар ko'm-ko'k yo'rg'akda.
Sog'lom ulg'ay, jon go'dak,
Malla soching jingalak.





Topishmoqlar

Tunda ko'rib,
Cho'g' deysan.
Tongda ko'rib,
Yo'q deysan.



Tanga-tanga to'ni bor,
Mittigina ko'zi bor,
Suzsa, suvlar jimirlar,
Qamishlar ham qimirlar.

O'luguayin ayyorman,
O'rmon ichra sayyorman.
Dumim supurgisifat,
Na do'stim bor, na ulfat.
Meni qilmay ko'p kulgi,
Nomim to'g'ri ayt – ...





Kichik do'stlarimga

Vatan agar bo'lsa bir chaman,
Siz qo'ynida xandon g'unchalar.
Ey siz, mening kichik do'stlarim,
Vataningiz sevar shunchalar.
Kelgusida sizlar bizdan ham
Yuksaklarga parvoz etarsiz:
Balki, chiqib oyning yuziga,
O'zbekiston naqshin bitarsiz.

Zafar Diyor

O'quv nashri

Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova

Smart darslik g'oyasi muallifi Dadajon Sayfurov

ALIFBE

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining
1-sinfi uchun darslik*

Muharrir Orifjon Madvaliyev

Rassom Kamoliddin Nurmanov

Texnik muharrir Shoxrux Turaxanov

Dizayner Oloviddin Sobir o'g'li

Dasturchi Iskandar Matlab

Musahhih Nilufar Oymatova

Bosishga ruxsat etildi _____. Bichimi 60x84 1/8.

Arial garniturasi. Kegli 18. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 9,3.
Nashriyot-hisob tabog'i 10,24. Adadi 608 220 nusxa. Buyurtma № _____.

"Kolorpak" MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-A uy.

